



"BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KOMPENTENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TA'LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI"

Murodaliyeva Elnuraxon Mirkamoljon qizi

Qo'qon davlat universiteti;

Boshlang'ich va texnologik ta'lim fakulteti ;

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi;

murodaliyevaelnuraxon@gmail.com

70-026-17-13

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19549827>

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda ta'lim sohasida keng qo'llanilayotgan kompetensiyaviy yondashuv haqida ma'lumot beriladi. Kompetensiyaviy yondashuvning boshlang'ich ta'lim jarayoniga qay darajada ta'sir ko'rsatishi hamda o'quvchilarning shaxs sifatida rivojlanishiga qo'shadigan hissasi yoritiladi. Zamonaviy bolalarni o'qitish metodikasida kompetensiyaviy yondashuv asosida darslarni tashkil etish choralari va istiqbollari ilmiy-nazariy qarashlar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur yondashuvning o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish va bilimlarni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, bolalar psixologiyasi, zamonaviy metodika, ta'lim istiqbollari, mavjud kamchiliklar.

Bugungi kunda ta'lim tizimida katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat rivojlanib borayotgan bir paytda maktab ta'limiga ham yangi talablar qo'yilmoqda. Endilikda o'quvchilarga faqat bilim berish yetarli emas, balki ularni mustaqil fikrlay oladigan, hayotda o'z o'rnini topa oladigan shaxs sifatida tarbiyalash muhim hisoblanadi. Chunki hozirgi zamon bolalari avvalgi davr bolalaridan ancha farq qiladi. Ular axborotga boy muhitda ulg'aymoqda, turli texnologiyalardan foydalanmoqda va tez fikrlashga odatlangan. Boshlang'ich ta'lim esa butun ta'lim tizimining eng muhim bosqichi sanaladi. Aynan shu davrda bolaning o'qishga bo'lgan qiziqishi shakllanadi, uning nutqi, tafakkuri va dunyoqarashi rivojlanadi. Agar boshlang'ich sinflarda ta'lim samarali tashkil etilsa, o'quvchi keyingi sinflarda ham qiynalmasdan o'qiydi. Aks holda esa bilimdagi bo'shliqlar keyingi bosqichlarda muammoga aylanishi mumkin. Hozirgi vaqtda ta'lim sohasida kompetensiyaviy yondashuv keng joriy etilmoqda. Bu yondashuvning asosiy maqsadi o'quvchini faqat ma'lumot bilan to'ldirish emas, balki olgan bilimini amalda qo'llay oladigan darajaga yetkazishdir. Ya'ni o'quvchi qoidani yodlabgina qolmasdan, uni hayotiy vaziyatlarda ishlata olishi kerak. Masalan, matematika darsida misol ishlash bilan birga kundalik hayotdagi hisob-





kitoblarni bajara olishi, ona tili darsida esa fikrini to'g'ri va ravon bayon qila olishi lozim.

Asosiy qism

Kompetensiyaviy yondashuvning asosiy maqsadi-o'quvchini shunchaki bilimli qilish emas, balki uni hayotga tayyorlashdir. Oldingi yillarda ta'lim ko'proq ma'lumot berishga qaratilgan edi. O'quvchi qoidani yod olardi, testni ishlardi, lekin ba'zan o'sha bilimni kundalik hayotda qo'llay olmasdi. Hozirgi kunda esa vaziyat o'zgarmoqda. Endi o'quvchi o'rgangan narsasini amalda ishlata olishi kerak. Pedagogika fanida ham ta'kidlanishicha, bilim faqat yodlash orqali emas, balki faol ishtirok va amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlanadi. Olimlar fikriga ko'ra, o'quvchi o'zi mustaqil bajargan topshiriqni 60–70 foizgacha eslab qoladi, faqat tinglab o'tirgan ma'lumotning esa taxminan 20–30 foizi xotirada qoladi. Bu esa darsda faol metodlardan foydalanish zarurligini ko'rsatadi. Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchisi matematikada ko'paytirish jadvalini yod bilishi mumkin. Lekin do'konga borganda 3 ta daftar narxini hisoblay olmasa, demak bilim to'liq shakllanmagan bo'ladi. Kompetensiyaviy yondashuv aynan mana shunday holatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Dars jarayonida o'qituvchi bolalarga hayotiy misollar berishi kerak. Masalan, pul sanash, vaqtni aniqlash, yo'l masofasini hisoblash kabi vazifalar berilsa, bola o'qiganini hayot bilan bog'laydi. So'nggi yillarda o'tkazilgan kuzatuvlarga ko'ra, boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar qo'llanilganida o'quvchilarning darsga qiziqishi 25-30 foizga oshgan. Guruhda ishlash, savol-javob va muammoli vaziyatli topshiriqlar berilganda o'quvchilarning faolligi sezilarli darajada ortadi. Oddiy ma'ruza shaklidagi darslarda esa o'quvchilar tez charchab qoladi. Ona tili darsini olaylik. Avvallari o'quvchi faqat qoidani yodlar, mashq bajarardi. Hozir esa u kichik matn tuza olishi, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda bayon qila olishi kerak. Masalan, "Mening oilam" mavzusida gap yozish yoki sinf oldida kichik chiqish qilish orqali bolaning nutqi rivojlanadi. Psixologlar fikricha, 7-10 yosh oraliqida bolaning nutq va tafakkur qobiliyati eng tez rivojlanadigan davr hisoblanadi. Agar shu bosqichda to'g'ri metod qo'llansa, bola keyingi yillarda ham erkin fikr bildiradi. Yana bir misol. Agar o'qituvchi dars davomida bolalarni guruhlariga bo'lib ishlatsa, ular bir-biri bilan fikr almashadi. Bu jarayonda tortinchoq bolalar ham asta-sekin faollashadi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, guruhli ishlarda o'quvchilarning 70 foizdan ortig'i faol qatnashadi. Bu esa ularning ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirishga yordam beradi. Kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish uchun bir nechta muhim choralar mavjud. Birinchidan, darsliklar mazmuni hayotga yaqin bo'lishi kerak.






Masalalar sun'iy emas, real vaziyatlarga asoslangan bo'lsa, bola tezroq tushunadi. Ikkinchidan, o'qituvchi faqat tushuntiruvchi emas, balki yo'naltiruvchi bo'lishi lozim. U bolaga tayyor javob bermasdan, o'ylashga undashi kerak. Masalan, "Nega shunday bo'ldi?", "Boshqa yo'l bilan yechsa bo'ladimi?" kabi savollar bolaning tafakkurini rivojlantiradi. Uchinchi muhim jihat-axborot texnologiyalaridan foydalanishdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'rgazmali materiallar bilan o'tilgan darslarda o'quvchilarning mavzuni tushunish darajasi 30-40 foizga yuqori bo'ladi. Masalan, tabiat mavzusini oddiy o'qib berishdan ko'ra, qisqa video yoki rasmlar orqali tushuntirish samaraliroq bo'ladi. Shuningdek, baholash tizimi ham muhim o'rin tutadi. Faqat test bilan baholash ba'zan bolaning haqiqiy bilimini ko'rsatmaydi. Amaliy topshiriqlar, kichik loyiha ishlari, og'zaki chiqishlar orqali baholash yanada to'g'riroq natija beradi. Amaliy baholash jarayonida o'quvchining fikrlashi, nutqi va ijodkorligi ham hisobga olinadi. Bu esa kompetensiyaning to'liq shakllanishiga xizmat qiladi. Albatta, kompetensiyaviy yondashuvni joriy etishda ayrim qiyinchiliklar ham mavjud. Ba'zi o'qituvchilar yangi metodlarga o'rganmagan bo'lishi mumkin. Ayrim maktablarda texnik vositalar yetarli emas. Lekin bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ta'lim sifati oshib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, zamonaviy metodlardan foydalangan sinflarda o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichi an'anaviy usuldagi sinflarga nisbatan yuqoriroq bo'lmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni qo'llash ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv o'quvchini faqat bilim egasi emas, balki o'z bilimini hayotda qo'llay oladigan, mustaqil fikrlaydigan va muammolarni hal qila oladigan shaxs sifatida shakllantiradi. Darslarni hayotiy misollar asosida tashkil etish, faol metodlardan foydalanish va amaliy topshiriqlar berish orqali o'quvchilarda zarur ko'nikmalar rivojlanadi. Shuning uchun boshlang'ich ta'lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish bugungi kun ta'limining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. 152-160-betlar.
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: O'qituvchi, 2016. - 45-52-betlar.
3. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 2014. - 98-105-betlar.





4. Ishmuhamedov R. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2018. – 67–74-betlar.
5. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019. – 120–128-betlar.
6. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standarti. – Toshkent, 2021. – 10–18-betlar.
7. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi rasmiy sayti:
<https://uzedu.uz>
8. Ziyonet ta'lim portalini:
<https://ziyonet.uz>

